

## O'ZBEKISTONDA SAYYOHLIK TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Qosimov Jahongir**

*Qarshi davlat universiteti "Turizm va marketing" kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Guliza Ro'ziboyeva**

*Qarshi davlat universiteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Sayyohlik, turizmni davlat tomonidan tartibga solish, xususiy turizm, rekreatsion resurslar. Xostellar, turistik jozibadorlik.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda sayyohlik turizmini iqtisodiyotning strategik sohasidan biriga aylantirish bo'yicha olib borilayotgan islohatlar va tadqiqotlar haqida bayon etilgan bo'lib, turizm sohasini rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va ularda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish.** Hozirda iqtisodiyotida turizm sohasi rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu sohaning rivojlanishida xorijiy sarmoya va investorlarning roli kattadir. Buning uchun avvalambor, turizm tarmoqlarini rivojlantirish uchun qo'shma korxonalar tuzishning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, turizmni davlat tomonidan tartibga solish, bu sohani rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan ko'rsatilayotgan shart-sharoitlar, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Sayohatni amalga oshirish - turistlarning yoshi, intellekt darajasi, moliyaviy ahvoli va ko'pgina boshqa omillarga bog'liq. Dam olish, dunyoqarashni kengaytirish, notanish narsalarni bilish, ko'ngil ochish, diniy, davolanish, qarindoshlar va do'stlarni ko'rish va boshqa maqsadlar tufayli kishilar sayohatni amalga oshiradilar. Sayohatni tanlashda maqsadlarning o'zgarishi iste'molchi bozorida turistik mahsulotni taklif qiluvchi turistik firma uchun salbiy oqibatlariga olib keladi. Kayfiyat, moda, umumiy siyosiy iqtisodiy holat va ko'pgina boshqa omillarga e'tiborsizlik tufayli mijozlar yo' qotiladi, natijada, turistik faoliyatda iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Turizm sohasini rivojlantirish va tartibga solish mexanizmlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha turli xil qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, biz, ushbu yo'nalishda

baʼzi mualliflarning fikr va mulohazalarini oʻrganib, ularning ilmiy yondashuvlarini umumlashtirib, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlari, vositalari va usullari boʻyicha fikrlarimizni qisqacha bayon qilamiz. Iqtisodchi olim M.T.Alimova oʻzining “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterni shakllantirish boʻyicha ilmiy mulohazalarni keltiradi. Taʼkidlash kerakki, hozirgi vaqtda turizmni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yoritib berish va turizm industriyasini rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari, omillari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish yoʻnalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solish vositalari va bosqichlari doirasidagi tadqiqotlar koʻplab iqtisodchi olimlar oʻrtasida toʻliq bayon etilmagan. Shuning uchun, bizningcha, hozirgi vaqtda turizmni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlatning roli keng boʻlib, sohada realizatsiya qilinayotgan davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari bilan bogʻliq muammolarga eʼtiborni qaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqot ishida keyingi yillarda respublikamiz iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi jarayonlari hamda jahonda va respublikamizda yuz berayotgan koronavirus pandemiyasi hisobga olish, turizm sohasini kompleks rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlari hamda tartibga solish vositalari va usullarini tadqiq etishning muhim jihati sifatida oʻrganish metodologiyasi qoʻllanilib, mazkur yoʻnalish boʻyicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar fikrlariga tayangan holda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, emperik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali turizm sohasi rivojlanishining oʻstuvor yoʻnalishlarini belgilash usuli taklif etilgan. Shuningdek, turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlari va vositalari, sohani samarali rivojlantirishning asosiy tamoyillari va turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini taʼminlash yoʻnalishlari, turizmni davlat tomonidan tartibga solishning bosqichlari hamda turizm industriyasi rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash darajalari boʻyicha omillariga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tahlil va natijalar Turizmning rivojlanishi, ayniqsa zamonaviy beqaror iqtisodiy vaziyatda mintaqalarda turistik kompleksning bir xil emasligini koʻrsatadi, bu esa davlatni qoʻllab-quvvatlash modelini ishlab chiqish va iqtisodiy mexanizmni tartibga solishga turlicha yondashishga olib keladi. Turizmning samaradorligi dam olish va madaniy obyektlar mavjud hududlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtiradigan va mintaqalarda turizmni barqaror rivojlanishiga zamin yaratadigan muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimining hamda davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning nomukammalligi turizmga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Turizmni takomillashtirishning asosiy maqsadi – noyob turistik va rekreatsion resurslardan, ichki urf-odatlardan, turizm sohasi tadqiqotlarining ilmiy yutuqlaridan foydalangan holda hamda asosiy vazifalar yechimini taʼminlash asosida zamonaviy va raqobatdosh turistik kompleksni yaratishdir. Mahalliy va xorijiy mamlakatlar fuqarolarining ehtiyojlarini qondirish, yuqori sifatli turistik xizmatlar va aholining dam olishlari uchun shart-sharoit yaratish; – hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda turistik kompleksning hissasini oshirish; – tabiiy resurslar va kurortlarni, ilmiy, madaniy va tarixiy merosni saqlash va ulardan oqilona foydalanish. Bizning fikrimizcha, belgilangan maqsadlarga erishish uchun bir qator asosiy tamoyillarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilardan iborat: – xususiy turizm sohasidagi obyektlarning toʻliq inventarizatsiyasini oʻtkazish, ushbu obyektlarni roʻyxatdan oʻtkazish tizimini ishlab chiqish va joriy etish va xususiy turistik obyektlarning reyestrini shakllantirish; – tashkiliy-huquqiy shakllar va mulkchilik turining barcha turdagi turistik tashkilotlarining muvaffaqiyatli ishlashi maqsadida, turizmni rivojlantirish uchun meyoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish; – hududlarda turistik tashkilotlarning rivojlanishini ragʻbatlantirish uchun oqilona soliq siyosati va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish; – davlat kafolatlari va mahalliy qoʻllab-quvvatlashning boshqa choralari bilan turizmga investitsiyalarni jalb qilish; – tabiiy resurslar va dam olish maskanlarini saqlash, ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish; – turistik xizmatlarning yuqori texnologik va raqobatbardosh ichki bozorini shakllantirish maqsadida transport, qishloq xoʻjaligi, sanoat, bank va investitsiya

tuzilmalari, sug'urta kompaniyalari va reklama agentliklari bilan turistik tashkilotlarning hamkorligi uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratish; – xizmatlarni sertifikatlashning xalqaro tizimi orqali sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solishni kuchaytirish; – turizm sohasida rahbarlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, sertifikatlash tizimi orqali yagona kadrlar siyosatini amalga oshirish. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish shakllari turistik mahsulotlar va xizmatlarga talab va taklif o'rtasida dinamik mutanosiblik erishish maqsadida sohani barqaror rivojlantirishga ta'sir etishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida turizm sohasini tartibga solishning barcha usullari va vositalari uzviy o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Ulardan kompleks foydalanish turizm industriyasida amalga oshadigan munosabatlar ishtirokchilari oldida yuzaga keladigan masalalarni samaralil yechish imkonini beradi. Turizmni tartibga solish ham bevosita, ham bilvosita tartibga solishning davlat va bozor mexanizmlarining sintezidan iborat. Turizmni tartibga solish tizimi muayyan konsepsiyaga asoslangan umumiy va maxsus, qisqa va uzoq muddatli choralar, usullar, tamoyillar va vositalar majmuini o'z ichiga oladi. Ushbu holatda, bizning fikrimizcha, turizm bozori rivojlanishiga ta'sir etishning bozor va davlat mexanizmlari o'ratsida o'zaro mutanosiblikni shakllantirishi zarur.

**Tahlil va natijalar:** Hozirgi kunda turistik xizmatlar bozori samarali rivojlanishining asosiy maqsadi – sohada iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish orqali ushbu bozor rivojlanishini ta'minlovchi qulay raqobatchilik muhitni shakllantirish nazarda tutilib, quyidagi vaziflar yechimiga qaratilgandir:

1. Turistik xizmatlar bozorida talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish;
2. Turistik xizmatlar bozorida uning subyektlari o'rtasida o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish va tartibga solish dastaklarini takomillashtirish;
3. Turistik xizmatlar bozorida raqobatchilik muhitini shakllantirish asosida turizm sohasin rivojlantirishning strategik konsepsiyasini ishlab chiqish va realizatsiya qilish.

Turizmni rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish turizmni davlat tomonidan tartibga solish mazmuniga ilmiy yondashuv asosida amaliy takliflar ishlab chiqishni talab etadi. Iqtisodiyotni ijtimoiy sohasi sifatida turizmni davlat tomonidan tartibga solish, bozor mexanizmlarining ishlashi uchun sharoitlarni ta'minlash maqsadida davlat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va bozor sharoitlariga ta'siri sifatida tavsiflanishi mumkin. Davlat tomonidan tartibga solish jarayoni murakkab vazifa bo'lib, u iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, uning qoidalarini asoslash, ushbu siyosatni amalga oshirish vositalari va usullarini tanlashni o'z ichiga oladi. Ta'sir obyekti bo'yicha turizmni davlat tomonidan tartibga solish deganda uchta o'zaro bog'liq qismlarni tartibga solish bo'yicha tadbirlar tushuniladi, ya'ni: turistik resurslar, ushbu sohadagi turistik va moliyaviy oqimlarni ishlab chiqish. Turizmni davlat tomonidan tartibga solishning mazmuni davlat organlari oldida turgan maqsadlar, shuningdek mintaqadagi davlat turizm idoralari iqtisodiy siyosat olib borishda ularning ixtiyorida bo'lgan vositalar bilan belgilanadi

Bugungi kunda respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq uning tashkiliy-iqtisodiy va institutsional asoslarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, respublikada davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida turistlar oqimi 2018 yil boshida 5,3 mln. kishini tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2020 yil boshiga kelib, 6,7 mln. kishiga oshgan. Shuningdek, 2018 yil boshiga joylashtirish vositalari soni 914 tani, 2021 yil boshida esa 1620 tani tashkil etgan, ya'ni bu ko'rsatkich 79 %dan ortiqqa oshgan.

Bundan tashqari 80ga yaqin mamlakat fuqarolari soddalashtirilgan tartibga ko'ra elektron viza rasmiylashtirish imkoniyati ega bo'ldi. Xorijiy davlat fuqarolarining alohida turlari uchun «Vatandosh», «Talaba», «Akademik», «Tibbiyot» va «Ziyorat» kabi yangi 5 xil viza turlari joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Turizm va Sport vazirligi ma'lumotlariga ko'ra viza rejimini soddalashtirish o'zining

ijobiy natijalarini ko'rsatdi. 2019 yilda chet ellik sayyohlar sonining o'sishi o'rtacha 26 foizni tashkil qilgan bo'lsa, vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar o'rtasida o'sish ko'rsatkichi 58 foizga yetgan.

### 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasidaturizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli

#### KO'RSATKICHLARI

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni (ming kishi)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSH dollari)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170
3.	Ichki turistlar soni (mingta tashrif)	15 493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4.	Mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish vositalari soni (dona)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	41	49	72	95	110	122	124	128
7.	Turoperatorlar soni (nafar)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1 450

Sayyohlar sonining keskin o'sishi natijasida yuzaga kelgan talabni qondirish maqsadida davlat tomonidan joylashtirish maskanlarini ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**Birinchidan**, hamyonbop joylashtirish maskanlari turiga mansub xostellar faoliyatini tartibga soluvchi 22 turdagi ortiqcha talablar bekor qilindi. Shu jumladan, xostellar tomonidan ko'rsatiladigan mehmonxona xizmatlarini majburiy sertifikatsiyalash tartibi bekor qilinib, mehmon uylari va xostellar yagona reyestridan ro'yhatdan o'tgan holda faoliyat olib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

**Ikkinchidan**, mamlakatda kichik turdagi mehmonxonalar sonini ko'paytirish maqsadida Turkiya va Janubiy Koreya tajribasiga asoslangan 50 nomergacha bo'lgan kichik mehmonxonalarning 8 turdagi namunaviy loyihalari tadbirkorlarga bepul taqdim etildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, tarqatilgan loyihalarning umumiy qiymati 60 mlrd. so'mdan oshiqni tashkil etadi.

**Uchinchidan**, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida, davlat xususiy sherikchilik shartlari asosida mehmonxonalar qurishga qator imtiyozlar joriy qilindi. Unga ko'ra, qurilgan 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun davlat budjeti mablag'lari hisobiga 30 mln., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 40 mln. so'm kompensatsiya ajratish belgilandi. Shu bilan birga, jahonga mashhur mehmonxona bremlarini jalb qilgan mehmonxonalarning royalti xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, 3 yulduzli mehmonxonalarning har bir xonasi uchun 200 AQSh doll., 4 yulduzli mehmonxonalar uchun 400 doll ajratiladi.

Natijada, joylashtirish vositalarining soni keskin ko'paydi. Xususan, 2016-2020 yillar oralig'ida ularning soni 750 tadan 1308 taga, mavjud o'rinlar soni esa 34 mingdan 62 mingga oshdi. Shuningdek, 2018-2020 yillar davomida mehmon uylarining soni 13 barobarga oshib, 1386 taga yetdi. 10 dan ortiq nufuzli xorijiy nashrlar O'zbekistonni eng jozibador sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etdi.

O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning strategik sohalaridan biriga aylantirish bo'yicha qilingan ishlar turli reyting va nominatsiyalarda ham o'z aksini topdi.

Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston «The guardian» nashri tomonidan dunyoning eng yaxshi

sayyohlik yoʻnalishi, «Wanderlust» nazdida eng tez rivojlanayotgan davlat, «grandvoyage» hisob-kitobiga koʻra eng yaxshi rivojlanayotgan sayyohlik yoʻnalishi deb topildi. Undan tashqari BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti Oʻzbekistonni turizm sohasida shiddat bilan rivojlanayotgan davlatlar roʻyhatida 4-oʻrin bilan baholadi.

Ammo, sohada oʻz yechimini kutib turgan muammolar ham kam emas. Transport xarajatlarining qoʻshni davlatlar bilan solishtirganda karrasiga yuqori ekanligi, aviayoʻnalishlarning diversifikatsiya qilinmaganligi shuningdek, yoʻl, sanitar va informatsion infratuzilma obyektlari sifatining pastligi, gid va ekskursovod xizmatlarining talabga nisbatan keskin yetishmovchiligi sayyohlar nazdida Oʻzbekistonning turistik jozibadorligiga putr yetkazuvchi omillardan hisoblanadi. Mavjud muammolarni tez va sifatli hal qilish pandemiyadan keyingi davrda Oʻzbekistonning turizm imkoniyatlarini «davolashda» katta ahamiyat kasb etadi.

Eʼtiborli jihati shundaki, sayyohlar sonining oshishi turli hududlarda turlicha roʻy bermoqda. Misol uchun, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tashrif buyurganlar soni yillik oʻrtacha 22-25 foiz atrofida koʻpaygan boʻlsa, uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari orasida yillik oʻsish 50 foizni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda sayyohlik sohasini innovatsiya va raqamlashtirish orqali oʻzgartirish zaruriyati mavjud. Egallanmagan imkoniyat sifatida endi rivojlanayotgan agro va etno turizm kabi bozor segmentlarini rivojlantirish lozim.

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni koʻrsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning saʼy-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur. Bunda, hukumatning roli xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni taʼminlashdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) [ 24.01.2020].
2. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil 3/2021 (№ 00053) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
3. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami", 2019 yil 14 yanvar, 1-2-son, 5-modda
4. Abduvaxidov A.M., Zaynalov N.R., Amriddinova R.S., Jalolov O.I., Jomonqulova F.E., Norov A.M., Sirliboyev V.X. Mehmonxonalarda axborot-kommunikatsion tizimlar. Oʻquv qoʻllanma – Samarqand, SamISI, 2017, 402 b.
5. Jaxongir Kosimov “S VLIYANIYE PANDEMII NA TURIZM” JOURNAL OF SCIENTIFIC PROGRESS.2022
6. Kosimov Jaxongir “NACHALO SIFROVIZATSII TURISTICHESKOGO SEKTORA I YEGO RAZVITIYE” Journal of Advanced Research and Stability.2022
7. Kholliyev, S. (2022). Cultivated crops wild the importance of ancestors as a genetic resource and the need for their effective use. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 12(3), 16-18.